
Murojaatnomada belgilangan har bir vazifani bajarishga barchamiz mas'ulmiz



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 2020 yil davomida amalga oshiriladigan vazifalarni belgilab berish bilan birga, barcha sohalarida yangi innovatsion yondoshuvlar talab etmoqda.

Bugun murojaatnoma mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazish, aholi o'rtasida targ'ib qilish maqsadida qator targ'ibot tadbirlari o'tkazib kelinmoqda.

Farg'ona shahar hokimligida Prezidentimizning 24 yanvarda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasini o'rganishga bag'ishlangan tadbir bo'lib o'tdi.

Unda shahar hokimining o'rinbosarlari, deputatlar, shahardagi davlat hamda jamoat tashkilotlari, korxonalar rahbarlari, yoshlar ishtirok etdi.

Murojaatnomada xalqimizga munosib hayot barpo etish yo'lidagi ezgu tashabbuslar barchaga yangidan yangi g'oyalar berdi. Unda davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan. Murojaatnoma yurtdoshlarimiz tomonidan yakdillik bilan qo'llab-quvvatlanmoqda, ekspert va mutaxassislar tomonidan yuqori baholanmoqda.

Murojaatnomada davlatimiz rahbari tomonidan bundan buyon islohotlarning asosiy tashabbuskori jamiyat bo'lishi, vakillik hokimiyati ijro hokimiyati faoliyatini izchil nazorat qilishi bilan bog'liq g'oya ilgari surildi. Kuchli fuqarolik jamiyatini qaror toptirish, xalq irodasining davlat uchun ustuvorligini ta'minlash shu g'oya orqali samarali amalga oshadi. Jamiyatdagi dolzarb masalalar bo'yicha jamoatchilikning fikri va kayfiyatini o'rganish va hisobga olish maqsadida yangi institut – jamoatchilik palatasi tashkil etilishi bildirildi.

Shuningdek, yoshlarimizni o'qish, hunar o'rganish, salohiyatini ro'yobga chiqarish, ishlab taraqqiyotga xizmat qilish uchun har tomonlama qulay sharoit yaratish kabi dolzarb vazifa ilgari surildi. Yilning "Ilm- ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb nomlanishi ham shunga da'vat. Yana bir fikr/ 2 shundaki, inson qachon yaxshi ishlar qiladi, qachon kuchli bo'ladi? Qachon u emin-erkin bo'lsa, uning yo'lidan turli sun'iy to'siqlar olib tashlansa, albatta. Ruhan erkinlikni tuymagan inson ilm-ma'rifatli bo'lishi, ilg'or zamonaviy ko'nikmalarni egallashi, bugungi dunyoga integratsiyalashishi qiyin. Shu

ma'noda, masalan, propiska tizimining isloh etilishi masalasi qo'yilgani ham juda dolzarbdir.

Shuningdek, tadbir so'zga chiqqanlar ham murojaatnoma haqida o'z-fikr mulohazalarini bildirib o'tishdi.

Davlatimiz rahbarining Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilab berilgan ustuvor vazifalar mamlakatimizni barcha sohalarda izchil rivojlantirish bo'yicha muhim dasturilamal bo'lib, uni joylarda o'rganish, tahlil qilish har jihatdan muhim ekani ta'kidlandi.

Tadbirda Oliy Majlis Qonynchilik palatasi deputati U.Jabborov ishtirok etdi a so'zga chiqdi.

2020-01-28 17:20:53